



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 4

2026

ADABIY TANQIDCHILIKNING NAZARIY ASOSLARI VA ZAMONAVIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Tulishova Gulzina Ravshanovna

Jizzax davlat pedagogika universiteti, dotsent (PhD)

Annotatsiya

Ushbu maqolada adabiy tanqidchilik ilmining nazariy asoslari, uning adabiyotshunoslik tizimidagi oʻrni va funksiyalari tahlil qilinadi. Shuningdek, Abdulla Qodiriy, Ozod Sharafiddinov, Abdulla Qahhor kabi adib va munaqqidlarining tanqid haqidagi qarashlari asosida tanqidchilik mohiyati yoritiladi. Jadidlar davridan boshlab zamonaviy davrgacha boʻlgan tanqidchilik taraqqiyoti koʻrib chiqilib, bugungi globallashuv va axborotlashuv sharoitida tanqidchilik oldida turgan muammolar va vazifalar tahlil etiladi. Maqolada zamonaviy tanqidning ommalashuvi, uning ijobiy va salbiy jihatlari ham ochib beriladi.

Kalit soʻzlar: adabiy tanqid, tanqidchilik, adabiyotshunoslik, badiiy tahlil, jadidchilik, zamonaviy tanqid, ilmiy-estetik tahlil, adabiy jarayon, globallashuv, Ozod Sharafiddinov

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ЛИТЕРАТУРНОЙ КРИТИКИ И СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ

Тулишова Гульзина Равшановна

Джизакский государственный педагогический университет, доцент (PhD)

Аннотация

В данной статье анализируются теоретические основы литературной критики, её место и функции в системе литературоведения. Также освещается сущность критики на основе взглядов таких писателей и критиков, как Абдулла Кадыри, Озод Шарафиддинов и Абдулла Каххар. Рассматривается развитие критики начиная с периода джадидизма и до современности, а также анализируются проблемы и задачи критики в условиях глобализации и информатизации. В статье раскрываются как положительные, так и отрицательные стороны популяризации современной критики.

Ключевые слова: литературная критика, критика, литературоведение, художественный анализ, джадидизм, современная критика, научно-эстетический анализ, литературный процесс, глобализация, Озод Шарафиддинов.

THEORETICAL FOUNDATIONS OF LITERARY CRITICISM AND CONTEMPORARY DEVELOPMENT TRENDS

Tulishova Gulzina Ravshanovna

Jizzakh State Pedagogical University, Associate Professor (PhD)

Abstract

This article analyzes the theoretical foundations of literary criticism, its place and functions within the system of literary studies. It also explores the essence of criticism based on the views of writers and critics such as Abdullah Qodiriy, Ozod Sharafiddinov, and Abdullah Qahhor. The development of criticism from the Jadid movement period to the modern era is examined, along with the problems and tasks of criticism in the context of globalization and informatization. The article also reveals both the positive and negative aspects of the popularization of contemporary literary criticism.

Keywords: literary criticism, criticism, literary studies, literary analysis, Jadidism,

modern criticism, scientific-aesthetic analysis, literary process, globalization, Ozod Sharafiddinov.

Tanqidchilik ilmi adabiyotshunoslik fanining muhim tarkibiy qismi sifatida badiiy asarlarni tahlil qilish, ularning g'oyaviy-estetik qiymatini aniqlash hamda adabiy jarayonni yo'naltirishda muhim rol o'ynaydi. Tanqidchilik orqali adabiyot o'zining ichki qonuniyatlarini anglaydi va rivojlanadi. Zamonaviy axborotlashgan jamiyatda tanqidchilikning ahamiyati yanada ortib bormoqda. Har qanday badiiy asarni chuqur tahlil qilish, uning ijtimoiy va estetik ahamiyatini belgilash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Tanqidchilik ilmi badiiy asarlarni ilmiy-estetik tahlil qilish, baholash va adabiy jarayonni yo'naltirish vazifasini bajaradi. Tanqid adabiyotning rivojlanish mexanizmi bo'lib, u orqali asarlarning mazmuni, shakli va g'oyaviy yo'nalishi aniqlanadi. Bugungi globallashuv sharoitida milliy tanqidchilikni jahon tajribasi bilan uyg'unlashtirish zarurati ortib bormoqda. Shu bois ushbu maqolada tanqidchilikning nazariy asoslari bilan adabiy tanqidchilik tajribasi ham tahlil qilinadi.

Abdulla Qodiriy tanqidga yuksak ta'rif beradi: "Hayotning yangidan-yangi muvaffaqiyatlariga boshlovchi, ma'rifat degan muammoning kaliti, madaniyat dunyosi beshigi ana shu tanqididir" [1]. Qodiriy nazarida tanqid buzuvchi emas, balki yaratuvchi kuchdir. U to'g'ri yo'naltirilgan bo'lsa, jamiyatni ham, insonni ham kamolotga olib boradi.

Tanqidchilik ilmining nazariy asoslariga ko'ra, tanqidchilik badiiy asarlarni ilmiy-estetik tahlil qilish va baholashga qaratilgan faoliyatdir. U quyidagi funksiyalarni bajaradi: tahliliy (analitik), baholovchi (evaluativ) va yo'naltiruvchi (regulyativ). Dilmurod Quronovning ta'kidlashicha, "tanqid adabiyotning o'z-o'zini anglash mexanizmi hisoblanadi" [2; Quronov, 2018, 45-bet]. Yana bir o'rinda u shunday yozadi: "Adabiy tanqid hozirgi adabiy jarayon muammolarini o'rganish, yangi paydo bo'lgan asarlarni (shuningdek, o'tmishda yaratilgan asarlarni ham) bugungi kun nuqtayi nazaridan g'oyaviy-badiiy tahlil qilish va baholashni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Adabiy tanqid adabiyotshunoslikning operativ sohasi sifatida joriy adabiy jarayonga bevosita aralashadi va, aytish mumkinki, uning havosini belgilaydi" [3; Quronov, 2020, 10-bet]. Demak, adabiy tanqid asarlarni g'oyaviy va badiiy jihatdan baholaydigan, ham nazariy, ham amaliy vazifani bajaruvchi adabiyotshunoslikning faol sohasi bo'lib, u adabiy muhit rivojiga ta'sir ko'rsatadi.

Zamonaviy adabiyotshunoslikda tanqidchilikning turli metodlari mavjud. Ular jumlasiga tarixiy yondashuv, struktural tahlil, sotsiologik yondashuv va psixologik tahlil kiradi.

Tanqidchilikning rivojlanish bosqichlariga nazar tashlaydigan bo'lsak, u qadimdan mavjud bo'lib, Sharq mumtoz adabiyotida muhim o'rin tutganini ko'ramiz. Alisher Navoiy asarlarida badiiy so'zga qo'yilgan talablar tanqidiy fikrning dastlabki ko'rinishlari sifatida namoyon bo'ladi. XX asr boshlarida jadid adabiyoti bilan tanqidchilik yangi bosqichga ko'tarildi. Bu davrda tanqid milliy ongini uyg'otish vositasiga aylandi.

"Jadidlar va ularga izdosh bo'lgan adabiyotimizning to'ng'ich avlodi vakillari ham adabiyot va san'atni muqaddas deb qadrlash bilan birga, tanqidni ijodning muhim va ajralmas sohasi deb bilib, bu jahada ham faollik ko'rsatganligi bugungi adabiy jarayon va adabiyotshunoslik ilmi uchun ham ibratlidir. Ozod Sharafiddinovning Abdulla Qahhorning barcha muhim adabiy-tanqidiy fikr va qarashlariga alohida hurmat-e'tibor bilan munosabatda bo'lganligi ham ko'p ma'noni anglatib turadi" [4].

Avvalo, jadidlar harakati vakillari adabiyot va san'atni oddiy ijod mahsuli emas, balki millatni uyg'otuvchi, ma'rifatga yetaklovchi muqaddas kuch deb bilganlar. Shu bois ular uchun tanqid ham ikkinchi darajali emas, balki ijodning ajralmas qismi hisoblangan. Ya'ni ular nafaqat asar yozgan, balki adabiy jarayonni tahlil qilgan, baholagan va yo'naltirgan, adabiyotning g'oyaviy va badiiy darajasi uchun mas'uliyatni his qilganlar. Tanqid orqali ijodda tozalanish, yangilanish va o'sishni ta'minlashga harakat qilganlar, adabiy jarayonni ongli ravishda boshqarishga intilganlar. Shu sababli bu tajriba bugungi adabiy jarayon va adabiyotshunoslik

uchun ibrat maktabi sifatida baholanadi. Chunki hozir ham adabiyot rivoji uchun sogʻlom, xolis va ilmiy asoslangan tanqid zarur. Adabiyot va tanqid bir-biridan ajralmasdir; sogʻlom tanqid adabiy taraqqiyotning asosiy omili sanaladi; adabiy meros va ustozlar qarashlariga hurmat esa ilmiy rivojning muhim shartidir.

Keyinchalik tanqidchilik ilmiy asosda rivojlanib, mustaqil fan sifatida shakllandi. Ozod Sharafiddinovning bu yoʻnalishdagi qarashlari tanqidchilik mohiyati va uning asosiy funksiyasini anglashga yordam beradi. Uning fikricha, tanqidning vazifasi ijodkorlarni yetuk asarlar yozishga ilhomlantirish va qoʻllab-quvvatlash bilan birga, ayni vaqtda, “adabiyotni har qanday balo-qazodan qoʻriqlash, adabiyotning sergak, jasur posboni” boʻlishdan ham iboratdir. Bu, adabiyotning fidoiy jonkuyari va targʻibotchisi boʻlgan millatparvar va vatanparvar munaqqid-adabiyotshunos Ozod Sharafiddinov faoliyatining tayanch nuqtasi, ijodkor sifatidagi maslagi hamda eʼtiqodining mustahkam gʻoyaviy-nazariy asosi edi, deyish mumkin.

Shu munosabat bilan Ozod Sharafiddinovning adabiy tanqidchilik kasbi va uning oʻziga xos xususiyatlari hamda talablari haqidagi qarashlari alohida eʼtiborga molikdir: “Adabiy tanqid lirika va drama, qissa va roman kabi adabiyotning, soʻz sanʼatining teng huquqli janrlaridan biridir” [5]. Yaʼni adabiy tanqid ham gʻoyat murakkab va masʼuliyatli janrdir. Tanqidchi boʻlish uchun, albatta, isteʼdod kerak. Shoir, dramaturg yoxud nosir boʻlish uchun isteʼdod qanchalik zarur boʻlsa, tanqidchi boʻlish uchun ham shunchalik zarur.

Yirik adabiyotshunoslar taʼkidlashicha, tanqidchilik isteʼdodi bir necha ijodiy iqtidordan tashkil topadi. Bulardan birinchisi, adabiyotdagi goʻzallikni, gʻoyaviy va badiiy boylikni his qila bilishdir. Yaʼni tanqid badiiy asarni emotsional qabul qilish jarayonini idrok etish sanʼatidir. Tanqidchilik isteʼdodining tarkibiga kiruvchi yana bir jihat fikrlash qobiliyatidir. Tanqidchi oʻqigan narsalarini chuqur tahlil qila bilishi, asardagi voqea va hodisalarni hamda xarakterlarni hayot hodisalari bilan, hayotdagi jonli odamlar bilan taqqoslay bilishi, shuningdek, bu qiyosiy tahlillardan jamiyat hayoti uchun zarur va foydali xulosalar, umumlashmalar chiqara olishi kerak.

Ozod Sharafiddinov haqiqiy tanqidning eng asosiy spesifik vazifasi, eng avvalo, shoir va adib isteʼdodini oldindan koʻra olish, uni kashf etish, qadrlash va ayni vaqtda adabiy jarayondagi yetakchi tamoyillarni hamda yaratilayotgan yangi asarlarni badiiylik mezonlari asosida chuqur tahlil etishdan iborat boʻlmogʻi lozim, deb hisoblagan. Eng muhimi, Ozod Sharafiddinov bu prinsiplariga butun umri va ijodi davomida qatʼiy amal qilib kelgan.

“Munaqqid Ozod Sharafiddinov nazdida isteʼdodli sanʼatkor, birinchi navbatda, mutafakkir, hayot haqida fikrlovchi, uning ustidan hukm chiqaruvchi faylasufdir, chinakam poeziya esa hamma vaqt his-tuygʻuga aylanib ketadigan fikrdan paydo boʻladi” [6]. Aslida, chinakam sheʼr chuqur, teran fikr-maʼnoni goʻzal bir shaklda ifodalash sanʼati ekanligini Navoiylardan boshlab barcha mumtoz shoirlar taʼkidlab kelganlar.

Adabiy tanqid adabiyotning ajralmas va teng huquqli sohasi hisoblanadi. U faqat baholovchi emas, balki ijod jarayoniga bevosita taʼsir koʻrsatuvchi, uni yoʻnaltiruvchi va rivojlantiruvchi kuchdir. Tanqidning asosiy vazifasi ikki yoʻnalishda namoyon boʻladi: birinchidan, ijodkorlarni ruhlantirish, ularni yetuk asarlar yaratishga undash; ikkinchidan, adabiyotni “har qanday balo-qazodan qoʻriqlovchi”, yaʼni uning pokligi, badiiy saviyasi va gʻoyaviy darajasini himoya qiluvchi sergak posbon boʻlish. Ozod Sharafiddinov taʼlimotida adabiy tanqid nafaqat tahlil va baho, balki ijodni tarbiyalovchi, adabiyotni himoya qiluvchi va isteʼdodni kashf etuvchi yuksak masʼuliyatli ijodiy faoliyat sifatida talqin etiladi.

Zamonaviy tanqidchilik bugungi kunda yangi shakl va vositalar bilan boyib bormoqda. Internet va ijtimoiy tarmoqlar tanqidning ommalashuviga sabab boʻldi. Naim Karimovning fikricha, “zamonaviy tanqidchilikda ilmiylik bilan bir qatorda ommaviylik ham muhim ahamiyat kasb etadi” [7]. Darhaqiqat, zamonaviy tanqidchilikda bir qator muammolar kuzatilmoqda. Jumladan, subyektiv fikrlarning koʻpayishi, professional tanqidning kamayishi, tezkor, biroq yuzaki baholarning ustunlashuvi shular jumlasidandir.

Tanqidchilik ilmi adabiy jarayonni rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Zamonaviy

sharoitda uning roli yanada ortib, yangi vazifalarni yuzaga keltirmoqda. Bu borada quyidagi yoʻnalishlarda rivojlanish muhimdir: ilmiy asoslangan tanqidni rivojlantirish, yosh mutaxassislarni tayyorlash, raqamli platformalarda sifatli tanqidni yoʻlga qoʻyish.

Tanqidning yangi shakl va vositalar bilan boyishi bugungi kunning muhim belgilaridan biridir. Hozirgi kunda tanqid faqat ilmiy maqolalar yoki jurnallar bilan cheklanib qolmayapti. Masalan, YouTube platformasida kitob tahlili qiluvchi blogerlar roman yoki sheʼrlarni videoroliklar orqali sharhlamoqdalar. Telegram kanallarida yangi chiqqan asarlar haqida tezkor tahlillar berilmoqda. Podcastlar orqali adabiy asarlar muhokama qilinmoqda. Bu holat Naim Karimov taʼkidlagan ommaviylikning ortganini koʻrsatadi.

Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali tanqid keng auditoriyaga chiqdi. Endi faqat mutaxassislar emas, oddiy oʻquvchilar ham fikr bildirmoqda. Masalan, Instagram yoki Facebookʼda kitob oʻqigan foydalanuvchi qisqa sharh yozadi, Goodreads yoki unga oʻxshash platformalarda kitoblarga reyting beriladi, Twitter (X) tarmogʻida esa asarlar haqida qisqa, lekin tezkor fikrlar eʼlon qilinadi. Biroq bu holat bilan birga subyektiv fikrlarning koʻpayishi ham kuzatilmoqda. Koʻpchilik tanqidni ilmiy tahlil emas, shaxsiy did asosida bildiradi. Masalan, “Menga yoqmadi, demak bu asar yomon” degan yuzaki xulosalar uchrab turadi. Baʼzan asarning gʻoyasi yoki badiiy qiymatini tahlil qilmasdan, faqat hissiy baho beriladi. Yoki muallifga nisbatan shaxsiy munosabat asosida asar baholanadi.

Zamonaviy tanqidchilikdagi yana bir muammo professional tanqidning kamayishidir. Ilmiy asoslangan, chuqur tahlil qiluvchi tanqidchilar kamroq koʻrinmoqda. Masalan, ilmiy jurnallarda eʼlon qilingan tanqidiy maqolalar oʻquvchilar orasida kam oʻqiladi. Blogerlar fikri koʻproq mashhur boʻlib, professional adabiyotshunoslarning ishlari eʼtibordan chetda qolmoqda. Natijada akademik tahlil oʻrnini qisqa va sodda sharhlar egallamoqda. Shuningdek, tezkor, lekin yuzaki baholar ham zamonaviy tanqidchilikning muhim muammolaridan biri hisoblanadi. Axborot tezligi tufayli chuqur oʻrganish oʻrniga tez fikr bildirish ustun boʻlib bormoqda. Masalan, kitob yangi chiqqan zahoti uni toʻliq oʻqimasdan turib baho berish, “Top 5 kitob” yoki “eng yaxshi romanlar” kabi yuzaki roʻyxatlar tuzish, asarning faqat syujetiga qarab xulosa chiqarish shular jumlasidandir. Demak, zamonaviy tanqidchilik bir tomondan ommalashib, yangi imkoniyatlarga ega boʻlayotgan boʻlsa, ikkinchi tomondan uning ilmiyligi va chuqurligi pasayish xavfi ham mavjud. Shu bois bugungi tanqidchilikda ommaviylik va ilmiylik oʻrtasidagi muvozanatni saqlash muhim hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, adabiy tanqidchilik adabiyot rivojining muhim mexanizmi sifatida namoyon boʻladi. U nafaqat badiiy asarlarni tahlil va baholash, balki adabiy jarayonni yoʻnaltirish, ijodkorlarni qoʻllab-quvvatlash va isteʼdodlarni kashf etish vazifasini ham bajaradi. Ozod Sharafiddinov taʼlimotida tanqid adabiyotning “sergak posboni” sifatida talqin qilinadi. Zamonaviy axborotlashgan jamiyatda tanqidchilikning ahamiyati yanada ortib, yangi shakl va usullar bilan boyib bormoqda. Shu bilan birga, yuzaki va subyektiv baholarning koʻpayishi kabi muammolar ham mavjud. Kelgusida tanqidchilikni rivojlantirish uchun ilmiy asoslangan yondashuvni kuchaytirish, yosh mutaxassislarni tayyorlash va raqamli platformalarda sifatli tanqidni yoʻlga qoʻyish muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Qodiriy A. Diyori bakr. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007. — 112 b.
2. Quronov D. Adabiyotshunoslik asoslari. — Toshkent: Akademnashr, 2018. — 480 b.
3. Quronov D. Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslari. — Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020.
4. Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. — Toshkent: Sharq, 2004. — B. 274–339.
5. Hamroyeva M. Ozod Sharafiddinov ijodida adabiy-tanqidiy qarashlar // Modern Science and Research. — 2024. — 3-jild, 6-son.
6. Yoʻldoshev N. Yoniq qalb munaqqidi // Sharq yulduzi. — 2012. — 1-son.
7. Barcha kitoblar [Elektron resurs]. — URL: <https://n.ziyouz.com/kutubxona/barcha-kitoblar?showall=1>